



“MIFTOH UL-ADL” VA “GULZOR” ASARLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

*Sharof Rashidov nomidagi
SamDU filologiya
fakulteti II kurs magistranti
Valijonova Mahzunabonu*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xojaning “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ularda aks etgan diniy-ma’rifiy va axloqiy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarlarning kompozitsion qurilishi, Qur’oni Karim oyatlari va hadislardan foydalanish usuli, hikoyatlar tizimi hamda an’anaviy obrazlarning badiiy talqini yoritilgan. Shuningdek, payg‘ambarlar, donishmandlar, sulton va vazirlar timsolida adolat, ilm-ma’rifat, insonparvarlik va komillik g‘oyalari ifodalanishi ilmiy asosda tadqiq etilgan. Muallifning adolat konsepsiyasini turli syujet va obrazlar vositasida talqin qilishi, xalq manfaatini ko‘zlagan ideal hukmdor obrazini yaratishdagi mahorati ochib berilgan. Maqolada mazkur asarlarning Sharq didaktik adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni hamda ularning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati xususida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xoja, “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, didaktik adabiyot, hikoyat, adolat.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy tarix va ma’naviy merosni asrash, uni ilmiy asosda tadqiq etish hamda kelajak avlodga yetkazish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, boy ilmiy-ma’rifiy an‘analari va ajdodlarimiz qoldirgan bebaho yozma manbalarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor so‘nggi yillarda yanada kuchaydi. Buyuk mutafakkirlar, allomalar va aziz-avliyolar tomonidan yaratilgan ilmiy, diniy hamda ma’naviy merosni chuqur tadqiq qilish, ularni keng targ‘ib etish, tarixiy qadamjolarni obod etish orqali yosh avlod qalbida milliy o‘zlik va tarixiy xotiraga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday keng ko‘lamli sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2017-yil 24-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1: 2017-yil, 24 –may] qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat milliy yozma merosni asrab-avaylash, uni ilmiy muomalaga keng jalb etish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilishning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



Qarorda qo'lyozma va toshbosma asarlarni saqlash, restavratsiya qilish, kataloglashtirish hamda zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq etish masalalariga ustuvor vazifa sifatida yondashilgan.

Shuningdek, ushbu qaror orqali yoshlarni ajdodlar merosiga hurmat, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi hamda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini xalqaro hamjamiyatga chuqurroq tanitish maqsadi ilgari surilgan. Zero, qadimiy yozma manbalar xalqning nafaqat tarixiy xotirasi, balki uning ma'naviy tafakkuri, ilmiy salohiyati va madaniy taraqqiyotini o'zida mujassam etgan bebaho ma'rifiy manba hisoblanadi. Shu bois ularni o'rganish va targ'ib qilish bugungi kunda milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mumtoz adabiy manbalar tilining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish masalasi o'zbek tilshunosligida ham an'anaviy, ham sistem-struktur yondashuvlar asosida izchil o'rganib kelinmoqda. Ayniqsa, mumtoz matnlarda qo'llangan so'zlarning ma'no qatlamlari, ularning uslubiy vazifasi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar keyingi yillarda yanada faollashdi. Bu esa mumtoz adabiy merosni nafaqat filologik, balki madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida chuqur anglash imkonini bermoqda. So'nggi davrlarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy va adabiy merosga nisbatan munosabat tubdan yangilanib, ularni ilmiy asosda o'rganish, nashr etish hamda keng jamoatchilikka yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqimiz ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ulug' adiblar va mutafakkirlar asarlarini asl qo'lyozmalar asosida tadqiq etish, ularning ilmiy-estetik qimmatini xolis baholash hamda targ'ib qilish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu jarayon Sharq mumtoz adabiyoti namunalarining til xususiyatlarini o'rganish bilan bir qatorda, o'sha davr tafakkuri, badiiy-estetik qarashlari va ma'naviy muhitini tiklashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Sharq allomalari va mutafakkirlari qoldirgan yozma merosni har tomonlama o'rganish ilm-fanning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, Xojaning "Miftoh ul-adl" asari ham alohida ilmiy qimmatga ega manbalardan biridir. Mazkur asarning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida №885, №1791 hamda №7796 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalari mavjud. Tadqiqotimizda aynan №7796 inventar raqamli qo'lyozma asosiy manba sifatida tanlandi. [2: Inv № 4656-D. 210 varaq.] Ushbu nusxa nasta'liq xatida nafis usulda ko'chirilgan bo'lib, 113a–113b varaqlardan iboratdir. Mazkur qo'lyozma nafaqat asarning matniy xususiyatlarini, balki davr yozuv madaniyati va kitobat an'analarini o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi.



Bizgacha yetib kelgan ko‘plab didaktik mazmundagi asarlarda Qur’oni Karim oyatlari va Hadisi shariflarning badiiy hamda ma’rifiy talqiniga keng o‘rin berilganini kuzatish mumkin. Sharq mumtoz adabiyotida shakllangan mazkur an’ana Xoja ijodida ham izchil davom ettirilgan bo‘lib, uning Miftoh ul-adl asarida diniy-ma’rifiy qarashlar Qur’on oyatlari, hadislar va hikoyatlar vositasida izohlanadi. Asar kompozitsion jihatdan an’anaviy sharqona uslub asosida qurilgan: avvalo Qur’oni Karim oyati keltiriladi, undan so‘ng muallif asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi, uni kimga bag‘ishlagani hamda asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlarini bayon qiladi. Har bir mavzu yuzasidan mulohaza yuritilgach, tegishli oyat sharhlanadi va mazmun jihatdan unga yaqin bo‘lgan hadis keltirilib, izohlanadi. Shundan keyin esa oyat va hadis mazmunini mustahkamlovchi hikoyatlar beriladi. Shu tariqa asarning syujeti diniy-ta’limiy va axloqiy qarashlar uyg‘unligida rivojlanib boradi. Asarning 4656-D inventar raqamli qo‘lyozma nusxasi fors-tojik tilidagi she’riy parcha bilan boshlanishi ham muallifning ma’naviy-axloqiy qarashlarini ifodalashda ramziy-badiiy vositalardan unumli foydalanganini ko‘rsatadi:

*Dil ba dast ovar, ki hajji akbar ast,
Az hazoron Ka’ba yak dil behtar ast.* [3:130]

Mazkur baytda inson qalbini e’zozlash va ko‘ngil olish g‘oyasi ulug‘ haj amalidan ham ustun ma’naviy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Bayt mazmunida tasavvufiy-falsafiy qarashlar mujassam bo‘lib, inson qalbi ilohiy maskan darajasida sharhlanadi. Shundan so‘ng qo‘lyozma an’anaviy tarzda “*Bismillahir rohmanir rohiym*” iborasi bilan davom etib, Alloh taologa hamd aytiladi. Muallif asarni turkiy tilda yaratganini alohida ta’kidlab, uni muayyan hukmdor yoki homiyga bag‘ishlaganini qayd etadi. Asarda sultonlar, beklar va ulug‘larga xizmat qilishning uch ko‘rinishi ajratib ko‘rsatiladi: tan xizmati, til xizmati va ko‘ngil xizmati. Muallif ushbu xizmat turlarining mohiyatini sharhlash orqali insoniy fazilatlar, sadoqat va ma’naviy poklik masalalariga alohida urg‘u beradi. Bundan tashqari, asarda ijtimoiy-adolat mezonlari, davlat boshqaruvi, hukm chiqarish, jinoyat va jazo masalalari, shuningdek, axloqiy-tarbiyaviy mavzular alohida boblar asosida tizimli ravishda yoritilgan. Jumladan, olimlar fazilati, adolatli sultonlar, zolimlikning oqibatlari, mashvaratning ahamiyati, sud-huquq masalalari, o‘g‘rilik, zino, qasamyod, ta’zir hamda g‘azot kabi mavzular mustaqil boblar tarkibida bayon etilgan. Bu esa Miftoh ul-adl asarining nafaqat diniy-axloqiy, balki ijtimoiy-huquqiy hamda didaktik xarakterdagi muhim manbalardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Imomi A’zam, Ali, Umar, Dovud alayhissalom, Iso alayhissalom, Muso alayhissalom, Luqmoni hakim, Sulton Mahmud G‘aznaviy, Iskandar Zulqarnayn, No‘shiravoni odil, Bahromgo‘r kabi tarixiy, diniy va afsonaviy obrazlar Sharq mumtoz adabiyotida keng qo‘llanilgan an’anaviy qahramonlar



sirasiga kiradi. Xoja ijodida ham mazkur obrazlar didaktik va axloqiy g'oyalarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Gulzor asarida yuqoridagi obrazlar bilan bir qatorda Sultoni Sanjari Moziy, Sulaymon alayhissalom, Shayx Bahlul, Xorun ar-Rashid kabi qahramonlar bilan bog'liq hikoyatlar ham uchraydi. Bu esa asarning g'oyaviy-badiiy doirasini kengaytirib, undagi axloqiy-falsafiy qarashlarning rang-barangligini ta'minlaydi. Har ikkala asarda ham xalq tasavvuridagi ideal hukmdor obrazi alohida o'rin egallaydi. Muallif odil, diyonatli, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan, el dardi bilan yashaydigan shoh timsolini turli hikoyatlar vositasida badiiy talqin qiladi. Shu jihatdan "Iskandar Zulqarnayn va Chin hoqoni" haqidagi hikoyat alohida ahamiyatga ega. Sharq mumtoz adabiyotida Iskandar Zulqarnayn ko'pincha qudratli va adolatparvar hukmdor sifatida tasvirlangan bo'lsa, Xoja talqinida undan-da yuksakroq adolat mezoniga ega Chin hoqoni obrazi ilgari suriladi. Hikoyatda Iskandar Zulqarnayn jang va qurol kuchi bilan Chin mamlakatini egallashni maqsad qilgan bo'lsa, Chin hoqoni qon to'kish va vayronagarchilikning oldini olish uchun sulh va murosani afzal deb biladi. Muallif aynan shu jihat orqali haqiqiy adolat faqat harbiy qudratda emas, balki insonparvarlik, oqillik va xalq manfaatini ko'zlashda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Chin hoqoni harbiy salohiyat jihatidan raqibidan ustun bo'lishiga qaramay, urush yo'lini tanlamaydi va shu orqali o'z xalqi hamda lashkarini turli kulfat va zarar-zahmatlardan asrab qoladi. Natijada u asarda tinchlikparvar, uzoqni ko'ra oladigan va xalq manfaatini birinchi o'ringa qo'yuvchi odil hukmdor sifatida ulug'lanadi. Mazkur hikoyat orqali muallif hukmdor shaxsiga qo'yilgan axloqiy mezonlarni yoritib, davlat boshqaruvida adolat, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari ustuvor bo'lishi zarurligini badiiy-falsafiy asosda ifodalagan.

Xojaning "Miftoh ul-adl" hamda "Gulzor" asarlari tarkibida g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal ishlangan ko'plab hikoyatlar mavjud bo'lib, ularda diniy, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy masalalar o'zaro uyg'un holda talqin etiladi. Muallif ushbu hikoyatlar vositasida insonni komillikka yetaklovchi asosiy fazilatlarni targ'ib etishga intiladi. Asarlarda payg'ambarlar obrazi orqali insoniyatni iymon-e'tiqod, ezgulik va hidoyat sari da'vat etish yetakchi g'oyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ilm talab qiluvchi tolibi ilmlar timsolida ilm-ma'rifatning naqadar ulug' ne'mat ekani, ilm olish har bir mo'min-musulmon zimmasidagi muqaddas burch sifatida talqin qilinadi. Adib hikoyatlarining muhim qismi davlat boshqaruvi va jamiyat hayotidagi adolat masalasiga bag'ishlangan. Muallif adolatli sulton, oqil bek va dono vazir obrazlari orqali mamlakat osoyishtaligi hamda xalq farovonligi avvalo hukmdorning to'g'ri va odil siyosat yuritishiga bog'liq ekanini badiiy asosda yoritadi. Shu bois asarlarda hokimiyat egalarining xalq oldidagi



mas'uliyati, halollik va diyonat bilan ish yuritishi zarurligi takror-takror ta'kidlanadi. Xoja talqinida adolat jamiyat barqarorligini ta'minlovchi eng muhim mezon sifatida baholanadi. Muallif adolat tushunchasini turli syujet va obrazlar vositasida keng talqin qiladi. Jumladan, "Podshoh va zohid", "Mahmud G'aznaviy va boyqush", "Sulton Mahmud G'aznaviy, vazir va Ayo", "Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid", "Sulaymon, pashsha va yel" kabi hikoyatlarda bosh g'oyaviy markaz aynan adolat masalasiga qaratilgan. Mazkur hikoyatlarda hukmdor bilan oddiy xalq, donishmand bilan podshoh yoki qudrat bilan haqiqat o'rtasidagi munosabatlar orqali insoniy fazilatlar mezoni ochib beriladi. Xususan, Sulton Mahmud G'aznaviy bilan bog'liq hikoyatlarda hukmdorning xalq dardiga quloq tutishi, zulm va nohaqlikdan tiyilishi kerakligi uqtirilsa, Shayx Bahlul hamda Xorun ar-Rashid ishtirokidagi voqealarda donishmandlik va haqiqatning hokimiyatdan ustun turishi g'oyasi ilgari suriladi. Shuningdek, Sulaymon alayhissalom haqidagi hikoyatlarda tabiat, mavjudot va inson o'rtasidagi uyg'unlik adolat tamoyili bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Umuman olganda, Xoja hikoyatlarida adolat faqat huquqiy yoki siyosiy tushuncha sifatida emas, balki inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barkamollikning bosh mezoni sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan muallif asarlari Sharq didaktik adabiyotining yuksak namunalaridan biri sifatida alohida ilmiy-estetik qimmat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tarqib qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.
2. Podshohxoja. "Mifto'ul-adl" ning qo'lyozma nusxasi. Inv № 4656-D. 210 varaq.
3. Mirzaahmedova M. Xoja. – T.: Fan, 1975. – B.130.
4. Poshshoxo'ja. "Mifto'ul-adl" va "Gulzor" dan. – T.: O'zdatnashr, 1962. – B. 56.
5. Nazarova D. Mumtoz adabiyotda hikoyat janri xususiyatlari. O'zMU xabarlar, 2023. 1/11/1. – B. 392-394.